

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 27 (1088), 2024-yil 7-fevral, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



ELEKTROMOBIL TARMOG‘INI RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TAQDIMOT QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 6-fevral kuni elektromobil ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari bo‘yicha taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda avtomobilsozlik bo‘yicha katta tajriba va infratuzilma bor. Bugungi kunda 8 ta zavodda o‘nlab turdagi avtomobillar, yo‘lovchi va yuk mashinalari, qishloq xo‘jaligi va maxsus texnikalar ishlab chiqarilmoqda. Yana 2 mingdan ziyod korxonada kooperatsiya asosida butlovchi va ehtiyot qismlar tayyorlanmoqda.

O‘tgan yili dekabrda bo‘lgan yig‘ilishda davlatimiz rahbari elektromobillar hayotga tez kirib kelayotganini ta’kidlab, bu sohani o‘zlashtirish bo‘yicha topshiriqlar bergan edi. Joriy yil yanvarda Xitoyga davlat tashrifi chog‘ida Prezidentimiz “BYD” kompaniyasining bosh qarorgohida bo‘ldi. Ushbu kompaniya bilan hamkorlikda Jizzax viloyatida gibrid va elektr avtomobillarni yig‘ish bo‘yicha loyiha boshlandi. Kompaniya rahbari bilan muzokara chog‘ida yaqin istiqbolida ishlab chiqarish quvvatini yiliga 500 ming donagacha yetkazish bo‘yicha fikr almashilgan edi.

Bu zamon talab qilayotgan yo‘nalish. So‘nggi uch yilda O‘zbekistonda elektromobillar sotuvi 10 barobar ko‘paygan. 2023-yilda import qilingan avtomobillarning

35 foizini elektromobil va gibridlar tashkil qilgan.

Shu bois, mutasaddilarga bu yo‘nalishdagi marralarni kengroq olib, loyihalarni jadallashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. “BYD” kompaniyasi hamkorlarini jalb qilib, elektromobillar uchun butlovchi qismlarni o‘zlashtirish zarurligi ta’kidlandi.

Mazkur yangi tarmoqda raqobatbardosh bo‘lish uchun, eng avvalo, innovatsiya va ilg‘or texnologiyalar kerak. Shu bois, Turin politehnika instituti, muhandislik markazlari, ilmiy institut va laboratoriyalarni o‘zaro bog‘laydigan yaxlit tizim yaratish vazifasi qo‘yildi.

Shuningdek, bu soha rivojlanishi bilan mutaxassis va ishchilarga talab ortadi. Yaqin uch yilda bu talab 10 mingga yetishi mumkin. Shuning uchun malakali kadrlar tayyorlashni hozirdan boshlash kerakligi qayd etildi.

Elektromobillarni quvvatlash stansiyalarini rivojlantirish bo‘yicha dastur ishlab chiqilishi belgilandi.

O‘za

UYG‘OQ FIKR

Shavkat AYUPOV, Fanlar akademiyasi Matematika instituti direktori, akademik, O‘zbekiston Qahramoni

Joriy yilning 5-fevral kuni Prezidentimiz raisligida ijtimoiy sohalaridagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Unda ta‘lim, sport‘liqni saqlash, madaniyat va sog‘rtsohalar muhokama qilindi, ustuvor vazifalar belgilandi. Yig‘ilishda ko‘tarilgan har bir mavzu barchamizni uyg‘otishi, sergak torttirishi kerak.

Maktabda o‘qib yurgan chog‘larimizda ilm-fanning yirik namoyandalari haqida bizga ma‘lumot berishmagan. Yaqin o‘tmishda Fanlar akademiyasida faoliyat yuritgan, millat kelajagini o‘ylagan olimlarimizning qatag‘onga uchragan haqida eshitganmiz. Misol uchun, taniqli olim, akademik Habib

Abdullayevning geologiya ilm-fanida tutgan o‘rni beqiyos. Uning asosiy maqsadi milliy kadrlardan yosh olimlarni yetishtirib chiqarish edi. Sir emas, o‘sha paytlarda ko‘p olimlar boshqa millat vakillari bo‘lgan. Biz shulardan saboq olganmiz. Habib Abdullayev esa o‘zbek yoshlarini turli ilm-fan markazlariga yuborib, bilim olishi, olim bo‘lib yetishishiga hissa qo‘shgan. Milliy kadrlar o‘shisha imkoniyat yaratib bergan. Biroq uning shu xatti-harakati ancha tanqidga uchradi. Millatchilikda aylash boshlandi...

Yana bir olimimiz Qori Niyoziyning Mirzo Ulug‘bek astronomiya maktabi haqidagi kitobi Moskvada nashr qilindi. Bu kitob o‘z vaqtida mashhur bo‘lgan. Fanlar akademiyasi prezidenti bo‘lgan olim negadir ishdan chetlatildi, umrining oxirigacha Irri-gatsiya instituti (hozirgi “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandisligi instituti”) milliy tadqiqot universiteti)da kafedra mudiri bo‘lib ishladi. Ensiklopedik olim sifatida ilm-fanda uning o‘rni beqiyos edi. Nafaqat matematika ta‘limi, balki tarix, madaniyat sohalarida ham ko‘p kitoblar yozgan. Olimning salohiyatidan yetarlicha foydalanilmadi, shunga qaramay, u baribir ilm bilan shug‘ullanaverdi. Ayni paytda Qori Niyoziyning uyida olim nomi bilan ataluvchi markaz barpo etganmiz. Uning nomidagi stipendiya ta‘sis qilgan.

Davlatimiz rahbari Prezidentlik faoliyatining dastlabki paytidayoq ilm-fanga alohida e‘tibor qaratgani, 2016-yilning so‘nggi kunlarida Fanlar akademiyasi a‘zolari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuv sohada tub burilish yasadi. O‘shanda hammamizda fanimiz kelajagiga katta umid paydo bo‘lgan edi.



Hakim Yo‘ldoshev olgan surat.

BILIM — XAVFDAN MUNOSIB HIMOYA DEGANI

O‘tgan yillar ko‘rsatkichi, amaliyotda bu umiddar kutilganidan ham ko‘proq va yuqori darajada oqlanmoqda. Sohada qabul qilingan me‘yoriy hujjatlar fan va ta‘limni zamonaviy talablarga javob beradigan sifatga olib chiqishga qaratildi.

Ilm-fanga bu darajada katta e‘tibor qaralishiga qanday zarurat bor edi, degan haqli savol tug‘iladi. Sababi, dunyo notinchi. Biz yurtimizdagi tinchlikning qadriga yetishimiz kerak. Mamlakatimiz dunyoga ochiq, Rivojlangan davlatlar bilan aloqalarimiz yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Biroq ayrim davlatlardagi turlicha qarashlar mustaqilligimizga, mamlakatimiz suverenitetiga raqsa solishga sabab bo‘lishi mumkinligini ham inkor eta olmaymiz. Bizni o‘ziga tortib, “Boshqa bilan do‘st bo‘lmagin” qabilida siyosat yuritayotgan davlatlar bor. Istaymizmi-yo‘qmi, bizga ham qandaydir tahdidlar bo‘lishi tabiiy.

Ayni paytda xalqaro maydonda sanksiya siyosati keng qo‘llanilyapti. Biz bu xavfni ham inkor eta olmaymiz. Assosiz sabablarga bilan g‘avg‘o chiqarishga urinadiganlar nisbatan hushyor bo‘lishimiz talab etilmoqda.

Nima uchun ta‘lim, ta‘lim, deya bong uryapmiz? Chunki bilimli, salohiyatli yoshlar ertaga Vatani koriga yaraydi. Mamlakat mustaqilligi, yurt birlamligini saqlash aynan bilimli kadrlarga bog‘liq. Shu bois, faqat chetdan jalb etilgan mutaxassislarni ishlatish kerak emas, balki yangi texnologiya, zamonaviy texnika vositalarini bilimli yoshlarimiz, yetuk kadrlar ishlatib bilishi shart. Yurtimizda xorij universitetlari filiallari ochildiyotgani bejiz emas. Bir qancha nodavlat OTMLar faoliyat yuritaypti.

Ularda yoshlarga zamonaviy bilim bera oladigan kadrlar ishlab chiqarish kerak.

Yana bir jihat haqida to‘xtalmoqchi edim. Ayni paytda falsafa doktorligi, fan doktorligini yoqalayotgan soni yomg‘irdan keyingi qo‘ziqorinday ko‘payib ketdi. Plagiat avjiga chiqdi. Bu bilan sifatiz kadrlar yetishishi xavfi yaqqol ko‘rinib qoldi. Bizga ularning soni emas, sifati muhim. Fanda shaxsning roli juda katta. Mayli, o‘n nafar olim yetishib chiqmasin, bitta chiqsin, bitta yaxshi olim yuzta savodsiz, soxta olimdan ko‘ra ko‘proq foyda keltiradi.

Ta‘limga juda katta e‘tibor qaralimoqda. Ayniqsa, o‘qituvchi, murabbiylar roli oshib, ular qo‘llab-quvvatlanayotgani tahsinga sazovor. O‘qituvchilar bilimi, malakasini oshirishga ham alohida ahamiyat berilayotir. Chunki darslik yaratilishi, eng zamonaviy asbob-uskunalarni keltirilib, zamonaviy binolarni o‘quvchilar ixtiyoriga berilishi muammoga to‘la yechim bo‘la olmaydi. Qanday sharoit yaratilmasin, agar o‘qituvchi bilimining sifati past bo‘lsa, bola bilim ololmaydi. Bizga fidoyi, bilimli ustozlar kerak.

Mashhur Qorako‘l maktabining sobiq direktori, rahmatli To‘xtamurod Jumayev mashinasini sotib, maktabga tikkan haqida eshitgan edim. Mana shunday fidoyi o‘qituvchilar kerak bizga. Ayniqsa, kadr tayyorlash masalasida bunga e‘tibor berishimiz shart. Bu esa mamlakatimizni nafaqat tashqi, balki ichki xavfdan ham asraydi. Ichki xavf — bu yaqqol dushmanlik qilmasligi mumkin, ammo o‘z ishiga soxta yondashib, faqat o‘zini ko‘rsatish uchun 20-30 nafar nomzod, doktor chiqardim, deydisha namoyn bo‘ladi. 10 nafar fan nomzodi emas, 1

nafar chiqarsin, bilimli bo‘lsin. Mana, biz matematikada shu jihatga juda katta e‘tibor qaratamiz.

Hozir xorij jurnallarida yaxshi maqolalar berilyapti. Skopu — iqtibos, degan narsa chiqqan hozir. Buni ham soxtalash-tirish boshlangan. “Yirtqich” jurnallar paydo bo‘ldi. 50 yoki 100 dollar pulingizni oladi-da, bir tiyanga qimmat maqolalarni chiqaryapti. Jurnal xorijiyga o‘xshaydi. Ichini ochib o‘qisangiz, tahrir hay‘atida o‘zimizning qorako‘zlar. Nima yozsangiz, chiqaraveradi. Bu ham xavfsizligimizga tahdid. Achchiq bo‘lsa ham aytay, tahlil-larda shunaqa soxta jurnallar bo‘yicha O‘zbekiston birinchi o‘rinda ekani ayon bo‘lib qoldi. Bu Vatanimiz obro‘sig‘a salbiy ta‘sir qiladigan jihat.

Yosh matematik olimlarning biri Portugaliya, biri Xitoy yoki Ispaniyadagi ilmiy markazlar bilan hamkorlik qilaypti. Chunki bu olimlarning bilimi bor, ularga talab yuqori. Soxta falsafa doktorlarining kimga keragi bor? Ayrim olimlarimiz chet elda o‘sha mamlakat pozitsiyasida ishlaypti. Lekin ular har yili eng iqtidorli bolalarni hamkorlik doirasida olib ketib, o‘sha yerda tarbiya qilaypti. Bizda bu borada muammo yo‘q.

O‘tgan yili hamma fan jamiyatlarining prezidentlarini yig‘dik. O‘shanda shu masalani o‘rtaga tashladik. “Sohangizdan chiqayotgan soxta maqolalarni vazirlik tekshira olmaydi, ily attestatsiya komissiyasi tekshirishiga imkoniyat yo‘q. Uni olimlarning o‘zi nazorat qilishi kerak. Fanningizning sofligini o‘zingiz asrashingiz kerak”, dedik. Biz nafaqat tashqi, balki shu kabi ichki xavflardan ham ogoh bo‘lishimiz zarur.

XALQARO HAMKORLIK

“QAYG‘ULI CHOG‘IMDA ILIQ BAG‘RIGA BOSIB OVUNTIRGAN JON O‘ZBEKISTON” yoxud vaqt sinovidan o‘tgan do‘stlik

O‘zbekiston va Belarusni uzoq yillik do‘stona munosabatlar bilan birga xalqlarimizga xos mehnatsevarlik, vatanparvarlik va yaratuvchanlikka intilish kabi tuyg‘ular bog‘lab kelgan.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, xalqlarimiz do‘stligi XIX-XX asrlarda belarus etnik guruhi vakillarining Markaziy Osiyoga, jumladan, O‘zbekistonga ilk bor ko‘chib kelgan davrlardan boshlanadi. XX asr boshlarida Turkistonga kelgan belarus dehqoni Konstantin Pisarchik o‘zbek tilini yaxshi o‘zlashtirgan va 20-yillar boshida Qo‘qonda mahalliy aholi uchun yer tuzuvchilarni tayyorlash kurslari ochgan.

Do‘stona munosabatlarimiz, ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi yillarida yanada mustahkamlandi. 32 nafar o‘zbekistonlik Belarusni ozod qilish uchun kechgan beayov

janglarda Qahramon unvoniga sazovor bo‘lgan. Birgina Samarqand viloyatidan 500 dan ortiq askar Brest viloyati mudofaasida ishtirok etgan. Bugun mutaxassislar 1941-1944-yillarda Belarus hududida qurbon bo‘lgan mingdan ortiq o‘zbek jangchisi nomini aniqlagan. Ayniqsa, Belarusni dushmandan ozod qilishda o‘zbek jangchilari jasorati haqida hikoya qiluvchi “Umumiy g‘alaba uchun” kitobining birgalikda nashr etilgani haqiqatni yuzaga chiqarish va kelgusi avlodlarga yetkazishda muhim voqea bo‘ldi.

Davomi 2-betda

BOLALARIMIZ TAQDIRIGA BEFARQ BO‘LMAYLIK: SON KETIDAN QUVIB, SIFATNI UNUTMAYLIK!

“O‘zbeklar — bolajon xalq”. Biz ko‘p eshitgan bu ibora xuddi turmush tarzimizga aylanib qolgan. Albatta, hech kim biz bolalarimizni yaxshi ko‘rishimizni, ularga bor-budimizni berishga tayyor ekanimizni inkor etmaydi. Shu bilan birga, bugun zamonaviy dunyo muammolari hech birimizni chetlab o‘tmasligini yaxshi anglashimiz zarur.

Sobiq sovet tuzumi davrida ko‘p bolali oila namunasi davlat siyosati darajasigacha ko‘tarilgan edi. Buning obyektiv va subyektiv sabablari bo‘lgan, albatta. Avvalo, ikkinchi jahon urushidagi katta talafotlar o‘rni to‘ldirish maqsad qilingan bo‘lsa, keyinchalik markaz uchun paxta xomashyosi bazasiga aylangan mintaqamizda paxta teruvchi qo‘llar, arzon ishchi kuchi kerak edi. Shu maqsad yo‘lida turli rag‘batlar, “qahramon ona” obrazini shakllantirdi. Xo‘sh, hozir vaziyat qanday? Keling, bugungi kunimizga jamiyatshunoslik va aholishunoslik fanlari orqali ilmiy yondashib ko‘ramiz.

REPRODUKTIV SALOMATLIK YOKI AYOLLAR HAM INSON-KU...

Reproduktiv salomatlik nima? Bu — reproduktiv tizimdagi kasalliklarni (bepushlik, turli nuqsonlar, saraton va saraton oldi kasalliklari) bartaraf etib, er-xotin juftliklarini sog‘lom bola tug‘ilishiga tayyorlabgina qolmay, tug‘ilgan zurriyotni jismonan baquvvat, aqlan zukko, ijtimoiy barkamol avlod etib tarbiyalashga zamin yaratish.

Davomi 3-betda



TARAQQIYOT YO‘LI

AVTOMOBILSIZ KUN Uning to‘liq tatbiq etilishiga kim mas‘ul? BUGUNNING GAPI

Prezidentimiz farmoni, Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq, yurtimizda 2018-yilda har oyda “Avtomobilsiz kun” tadbirini o‘tkazish, 2021-yildan boshlab jahondagi mamlakatlar qatori bizda ham 22-sentabrni shunday kun sifatida nishonlash belgilangan edi. Xayrli ish qo‘llab-quvvatlanib, mamlakatimizning barcha viloyatlarida o‘sha yili ilk marta “Avtomobilsiz kun” aksiyasi tashkil etildi. Nainki poytaxtda, balki viloyat va tuman markazlarida ham muayyan joylarda “Salomatlik yo‘laklari” qurilib, uning bir qismi velosiped haydovchilari uchun ajratildi.

Aytish joiz, bu boradagi ishlar hozirga qadar amalga oshirib kelinadi. Nazarimizda, bu aksiyaga bo‘lgan munosabatda xuddi ko‘klam yomg‘irdan keyin qo‘ziqorinlar hosil bo‘lib qolgan holat kuzatilmoqda. Ayrim vazirlik, idoralar yoki ularning rahbarlari tomonidan tashabbuslar ko‘rsatiladi, tadbirlar o‘tkaziladi. Biroq ommaviylik yetishmaydi, ko‘pchilikning ushbu aksiyaga bepisand qarashi sezilib turadi. Masalan, Toshkent shahar hokimligi o‘tgan yil aprelda o‘tkazgan tadbirda ham xuddi shunday holat ko‘zga tashlandi. Haydovchilarning aksariyati “Avtomobilsiz kun” o‘tayoiganini bilmadi, yanada to‘g‘irrog‘i, bilishniyam istamadi. Markaziy ko‘chalardagi reklama monitorlarida yoki bekatlarda ham shu kun davomida avtomobildan foydalanmaslikning, velosipedda yoki piyoda yurishning sog‘lig‘imizga va shahrimizga foydasini targ‘ib qiluvchi e‘lon hamda plakatlari ko‘zga tashlanmadi...

Davomi 4-betda



XALQARO HAMKORLIK

"QAYG'ULI CHO'G'IMDA ILIQ BAG'RIGA BOSIB OVUNTIRGAN JON O'ZBEKISTON" yoxud vaqt sinovidan o'tgan do'stlik



Qobiljon SOBIROV, O'zbekistondagi SHHT Xalq diplomatiyasi markazi direktori

Boshlanishi 1-betda

Shuningdek, urush yillarida O'zbekistonga evakuatsiya qilingan madaniyat va fan arboblari orasida yangi belarus adabiyotining asoschilaridan biri — Yakub Kolas taxallusi bilan mashhur bo'lgan Konstantin Miskevich xalqlarimiz o'rtasidagi do'stona munosabatlarni rivojlantirishga muhim hissa qo'shdi.

Toshkentda Yakub Kolas ko'plab she'rlar bitdi. Xususan, "Yaqinlarimga", "Partizan qabri uzra", "Ona Vatan himoyachilariga", "Ezel", "Do'stinga", "Moskva", "Pistirma", "Qarg'alar", "Eman", "Nemis durbini", "Qirq ikkinchi", "Yer ovozi" va boshqa asarlarini shu shaharda yozdi.

Ayni shu davrda Yakub Kolasning Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Zulfiya, Mirtemir kabi mashhur va zabardast adiblar bilan do'stligi, yaqin hamkorligi boshlandi.

Qayg'uli cho'g'imda iliq bag'riga Bosib ovuntirgan jon O'zbekiston.

Mano shu so'zlar orqali shoir o'zbek xalqining yuksak saxovatini, muruvvati va keng insoniy fazilatlarini tarannum etgan.

Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, 1966-yil 26-aprelda Toshkentda Belarus adabiyoti va san'ati dekadasi tantanalari konserti dasturi bilan yopilishi kerak edi.

solgan kuchli zilzila tufayli bayram tadbirini o'tkazish nasib etmadi. Mana shu mash'um fojia oqibatlarini bartaraf etish uchun Toshkentga sobiq ittifoq respublikalari qatori Belarusdan ham 2 mingga yaqin quruvchi, me'mor va turli kasb egalari keldi.

Keyingi yillarda O'zbekiston va Belarus o'rtasidagi ishonchli va do'stona munosabatlar mutlaq yangi bosqichga ko'tarildi.

Qisqa vaqtda O'zbekiston va Belarus siyosiy, savdo-iqtisodiy, ayniqsa, gumanitar sohadagi o'zaro manfaatli aloqalarni mustahkamlash va yanada kengaytirishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi.

Birgina mana shu misol oliy va yuqori darajadagi rasmiy aloqalarni rivojlantirish bilan birga, o'zaro manfaatli hamkorlikni yaxshilashga hissa qo'shadigan jamoat tashkilotlari, xalqlarimiz madaniyati, an'ana va turmush tarzining o'ziga xos xususiyatlarini yetkazishga xizmat qiluvchi munosabatlar nechog'liq muhim ahmiyatga egaligini isbotlaydi.

Zamonaviy dunyo voqeeligi mana shunday misollar orqali xalq diplomatiyasi mexanizmlarini yanada keng qo'llash zarurligini ko'rsatmoqda.


Madaniy-gumanitar hamkorlik O'zbekiston — Belarus aloqalarining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan.

O'zbekistondagi SHHT Xalq diplomatiyasi markazi o'zining qariyb olti yillik faoliyati davomida tashkilotga a'zo, kuzatuvchi va mulozot bo'yicha shirik davlatlar bilan o'zaro ishonch va yaxshi ko'shniqlikni hamda millatlararo va dinlarni tutuvchilikni mustahkamlash, sivilizatsiyalararo mulozotni, madaniy-gumanitar aloqalarni va axborot

sohasida hamkorlikni kuchaytirishga yo'naltirilgan ko'plab xalqaro tadbirlar o'tkazib kelmog'unda.

O'zaro manfaatli, ishonch va do'stlik ruhiga yo'g'irilgan sheriklik munosabatlari belaruslik hamkasblar bilan hamkorlikni yanada kengaytirishda muhim omillardan biri sifatida ko'rilmog'unda.

Ikkinchi jahon urushi davlat tarixi muzeyi direktori V.Voropayev bilan O'zbekistondagi muzeylar, jumladan, Toshkentdagi "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi bilan hamkorlik o'rnatish xususida muzokaralar o'tkazildi.



tomoshabinlarga o'zbek kinoijodkorlarining "Ilhaq", "Islox'o'ja" va "Sen yetim emassan" filmlari namoyish qilindi.

Tadbirning ochilish marosimida Belarus Respublikasi madaniyat vaziri o'rinbosari V.Gromada mamlakatlarimiz o'rtasidagi aloqalar, jumladan, madaniyat sohasida ham jadal rivojlanayotgani, sheriklik munosabatlari yuksak darajada ekanini katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

Belarus Respublikasi Qurolli kuchlari huzuridagi Vatan himoyachilari va urush qurbonlari xotirasini abadiylashtirish boshqarmasi boshlig'i S.Voronovich bilan suhbatda mamlakat hududida halok bo'lgan yoki bedarak yo'qolgan o'zbek askarlari xotirasini abadiylashtirish, ularning qabrlari aniqlash ishlarida o'zbekistonlik mutaxassislarining ishtiroki, Belarus o'lkasini fashistlardan ozod etishda qurbon bo'lgan vatandoshlarimizning

tadqirini keng tadqiq etish maqsadida ma'lumotlar bazasini yaratish masalalari muhokama qilindi.

Ikkinchi jahon urushi davlat tarixi muzeyi direktori V.Voropayev bilan O'zbekistondagi muzeylar, jumladan, Toshkentdagi "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi bilan hamkorlik o'rnatish xususida muzokaralar o'tkazildi.

Mamlakat musulmonlari diniy uyushmasi rahbari, muftiy Abubakir Shabanovich bilan uchrashuvda O'zbekiston musulmonlari idorasi bilan hamkorlik o'rnatish masalasi muhokama qilindi.



bo'yicha almashinuvlarni yo'lga qo'yishga kelishildi.

Adabiyot asrlar davomida har qanday davlat va xalqning o'ziga xos tashrif qog'oz bo'lib kelgan. Har qanday millat vakillariga izzat-ikrom ularning tili va madaniyatiga hurmatdandir.

Belarus milliy kutubxonasi rahbari R.Bukach bilan suhbatda ikki mamlakat kutubxona muassasalari o'rtasida hamkorlikni faollashtirish, o'zaro kitob almashinuvini yo'lga qo'yish, Belarus milliy kutubxonasi o'zbek adabiyoti fondini tashkil etish bo'yicha kelishuvga erishildi.

milliy kutubxonasiga 100 ga yaqin sara badiiy, ilmiy-ommabop nashr, ensiklopediyalar, ma'lumotnoma va fotoalbomlar taqdim etildi.

Mamlakat musulmonlari diniy uyushmasi rahbari, muftiy Abubakir Shabanovich bilan uchrashuvda O'zbekiston musulmonlari idorasi bilan hamkorlik o'rnatish masalasi muhokama qilindi.



totuvlik, bag'rikenglik, yot g'oyalarga qarshi kurash sohasida hamkorlik bo'yicha kelishuvga erishildi.

O'tgan yili O'zbekiston va Belarus o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganing 30-yilligi nishonlandi.

Ikkinchi jahon urushi davlat tarixi muzeyida o'zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasiga bag'ishlangan "Xalq xotirasi muqaddas" nomli arxiv fotolar ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.

Ikkinchi jahon urushi davlat tarixi muzeyida o'zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasiga bag'ishlangan "Xalq xotirasi muqaddas" nomli arxiv fotolar ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.

Tajriba

KO'KDALADA SAKKIZ MING GEKTAR YER O'ZLASHTIRILDI

BEKORCHINING O'ZI YO'Q

Shaharda tug'ilib voyaga yetgani sabab Jahongir qishloq sharoitini ko'p ham tushunmaydi. Hali yosh bo'lishiga qaramay, ishdan bo'sh vaqt topdi deguncha, biror joyga borishga, o'rtoqlari bilan dam olishga intiladi.

Yangi tashkil etilgan Ko'kdala tumani markaziga yaqinlasharkan, katta yo'l o'rtasida tarvuzning faqatgina televizordagi ko'rgan kattagina haykaliga ko'zi tushdi.

Bir oz yo'l yurib, taksi haydovchisi mashina yo'nalishini chap tomonga burib, harakatda davom etdi.

Soat millari hali etralabki 11:00 ni ko'rsatmoqda. Bu paytda dalada ayni ish qizg'in

palla. Shunday damda uyd o'tirib bo'larmidi? Ammo kursdoshini yolg'iz tashlab ketish ham odobsizlik. Mehmonga qanday tushuntirishni bilmay, bir oz taraddudlandi.



Bir tomonda esa qizg'in ish ketyapti. Kimdir ko'chat o'tqazish, yana birovi uning ustini yopib bilan mashg'ul.

atrofiga kelib, kursdoshiga ko'zi tushdi-yu, uning shu yerdaligi allaqachon yodidan chiqib ketganiga xijolat tortdi.

ERTAPISHAR TARVUZLAR UNIB CHIQDI

YANGI NAV SINAB KO'RILADI

Ma'lumotlarga ko'ra, yangi tashkil etilgan Ko'kdala tumani birinchi yilning o'zidayoq eksport qilishni boshlab yuborgan.

Joriy yilda nihollarni har yilgidan ko'ra o'n besh kun oldin ekkid, — deydi Solih Rajabov.

2022-yilda olti gektarda dehqonchilik qilib, 450 tonnadan ortiq hosil olgandik.

Birgina yosh dehqonning dalasida ayni paytda yuzdan ortiq fuqaro mavsumiy ish bilan band.

O'tgan yili Rossiya, Qozog'iston, Qirg'izistonga 400 tonnaga yaqin tarvuz eksport qilgan dehqon joriy mavsumda 900 tonnadan ortiq hosil olishni mo'ljal qilmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, yangi tashkil etilgan Ko'kdala tumani birinchi yilning o'zidayoq eksport qilishni boshlab yuborgan.



oshirilib, 800 taga yaqin yangi ish o'rni yaratilgan.

Hududimizda tarvuz yetishtirish ixtisoslashuv ko'lami yildan-yilga kengaymoqda.

Dehqonlarning tajribasi yuksalishi ortidan hosildorlik ham oshib bormoqda.

Dehqonlarning tajribasi yuksalishi ortidan hosildorlik ham oshib bormoqda.

Akbar RAHMONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Taraqqiyot yo'li

BOLALARIMIZ TAQDIRIGA BEFARQ BO'LMAYLIK: SON KETIDAN QUVIB, SIFATNI UNUTMAYLIK!

Sherzodxon QUDRATXO'JA, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti rektori, professor

Boshlanishi 1-betda

Biz ertaga ota-ona bo'ladigan farzandlarimizni qanday sharoitda katta qilyapmiz? Ularning jismonan sog'lom o'sishi uchun kerakli vitamin komponentlari hamda oziq-ovqat ratsionini (nafaqat mol yoki qo'y, balki baliq, parranda, quyon go'shti iste'molini) to'g'ri ta'minlab beryapmizmi? Ayniqsa, ota bo'limish qizlarimiz salomatligiga qay darajada e'tiborimiz? Aksariyat qizlarimizda uchrab turadigan anemiya, buqoq, tos suyak muammasi va boshqa irsiy kasalliklar nafaqat bo'lg'usi yosh onalar hayotiga, balki tug'ilayotgan chaqaloqlarga ham xavf tug'diradi. Bundan tashqari, ayol organizmi bir tug'uruqdan keyin qayta tiklanmay turib, ketma-ket tug'uruq jarayonlarini boshdan o'tkazishi, 5-6 bola tug'ish ham uning salomatligiga jiddiy ta'sir qiladi. Yaqinda vatandosh ayol bir yilda 3 marotaba homilador bo'lganini eshitib taajjublandim. Birinchi farzand tug'ilganidan so'ng yana bir homila tushgan, so'ng uchinchi homiladorlik boshlangan. Bu esa, o'z navbatida, kelajak avlodning sog'lom bo'lishiga, millat ertasi salomatligiga to'g'ridan-to'g'ri xavfdir. Reprodukativ salomatlikni yaxshilash uchun yuqorida sanalgan xavf omillarini kamaytirish, reprodukativ huquq, ya'ni er-xotinlarni bolalar soni, ular tug'ilishidagi oraliq, tug'ilish vaqti, zamonaviy kontratsepsiya vositalaridan foydalanish, bolani ko'krak sut bilan boqishga e'tibor berish, buning uchun shart bo'lgan ma'lumot va vositalarga ega bo'lish borasida asosiy huquqlaridan xabardor qilish kerak.

Bizda uzoq yillar davomida ayollarga nisbatan shakllanib qolgan stereotip qarashlarining (voyaga yetmagan, ham jismonan, ham ruhan o'ila qurishga tayyor bo'lmagan qizlarning turmushga berilishi, ota-ona bo'lishga tayyor bo'lmagan er-xotin, ko'pincha yuzaga keladigan qaynona-kelin munosabatlari) barchasi ayol ruyi holati buzilishiga olib keladi. Buning oqibatida oilada nosog'lom muhit shakllanadi va er-xotin bir-birining almini boladan olishga harakat qiladi. Oilani jamiyat negizi deb hisoblasak, unda vujudga kelayotgan bunday muammolar jamiyatning ertasiga ta'sir qilmay qolmaydi.

DEMOGRAFIK DIVIDEND

Demografik tahlilni dunyo miqyosida olib qaraydigan bo'lsak, aholi soni keskin o'sishi va tabiiy resurslar kamayib borishi insoniyat uchun yangi chaqiriqlarni vujudga keltirmoqda. Bugun global muammoga aylanib borayotgan aholining keksayish jarayoni tobora ko'proq mamlakatlarni qamrab olayotgan bir paytda O'zbekistonning demografik holatida keskin yosharishi jarayoni kuzatilmog'unda. O'zbekiston Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimiz aholisi 2023-yilda 768,1 ming kishiga ko'payib, 2024-yilning 1-yanvar holatiga qariyb 36 million 800 ming kishini tashkil etgan. Bu nufusimiz o'tgan yilning shu davri bilan solishtirilganda 3,2 foizga o'sgan, demakdir. Boshqachay aytganda, aholimiz soni har kuni o'rta 2,1 ming kishiga, har oyda esa o'rta 63,9 ming kishiga ko'paymoqda. Statistika agentligi shuni ham qayd etadiki, O'zbekistonda



odamlarning o'rta umr ko'rish davri 74,3 yilni tashkil qiladi. Jumladan, erkaklar uchun ko'rsatkich 72,1 yoshga, ayollar uchun 76,6 yoshga to'g'ri keladi. Prognozlashuv va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ma'lum qilishicha, mamlakatimizda 2016-2021-yillar mobaynida tug'ilishning keskin oshishi



kuzatildi. Go'daklarning dunyoga kelishida 25-39 yosh oraliqidagi ayollarning ulushi katta. Tug'ilishdagi asosiy o'sish uchinchi va undan keyingi farzandlar ulushiga to'g'ri keladi. 2016-yilda 204,9 ming uchinchi farzand dunyoga kelgan bo'lsa, 2021-yilda ularning soni 325,2 mingga yetgan. Ushbu go'daklarning tug'ilishidagi o'sish ham 25-39 yosh oraliqidagi ayollarning hissasidir. Tug'ilishning yig'indi koeffitsiyenti (bir ayolga to'g'ri keladigan bolalar soni) 2016-yilda 2,46 ni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda 3,17 ga ko'tarildi.

O'zbekiston aholisining 5,4 foizini 65 va undan yuqori yoshdagilar (2023-yil 1-yanvarga ko'ra) tashkil qilgan. Mamlakat dunyoning aholisi yosharib borayotgan davlatlari qatoriga kiradi. Qayd etilishicha, oxirgi besh yilda tug'ilishning keskin oshishi mamlakat demografik dividend bo'sag'asida turganidan darak beradi.

Demografik dividend bu — mamlakatda mehnatga layoqatli aholining ulushi bolalar va

Bugun tarix bizga noyob imkoniyat beryapti, yangi O'zbekiston farzandlarini dunyoning baland sahnalariga olib chiqish yo'limiz. Yoshlarimiz oz emas, ko'p, ammo gap sonda ham emas, sifatda. Bugun dunyoda insoniyat xas-cho'pdan ungan daraxtga raqam qo'yib, pasport beryapti. Bas, shunday ekan, Allohning yaratgan oliy mavjudoti bo'lmish insoniyatga, uning hayot tarziga, munosib yashashiga va iqboliga jo'ngina qarash mutlaqo noto'g'ridir!

nisbatan arzon ishchi kuchi, to'lov qobiliyatiga ega xaridorlar ko'payishiga zamin yaratadi. Shuningdek, makroiqtisodiyot ko'rsatkichlari bo'yicha 50 million aholisi bor davlat mustaqil bozorga ega bo'la oladi. Lekin bunda ham barcha soha kabi balans bo'lishi kerak. Aholi keskin oshishi bilan birga iqtisodiyot shunga yarasha o'smasa, ta'lim va tibbiyot rivojlanmasa, o'rta qatlam shakllantirilib, qo'llab-quvvatlanmasa, bu ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini Afrika va Osiyo mintaqalarining bir necha mamlakatlari misolida kuzatishimiz mumkin. Bir so'z bilan aytganda, demografik dividenddan samarali foydalanish inson kapitalini rivojlantirishga sarmoya kiritishni talab etadi.

INSON KAPITALI

Inson kapitali bu — inson va umuman, jamiyatning turli ehtiyojlarini qondirish



Hakim Yo'ldoshev olgan suratlardir.

voyaga yetkazgan. Lekin o'yab ko'raylik, ular qanday sharoitda yashagan? Ustiga necha marta yangi kiyim sotib olgan? Bolalar o'zlaridan katta farzandlar yoki qarindoshlar kiyimlarini

bilan maktabdan so'ng shug'ullanishi dardkor, 5-6 bolali ota-ona farzandi bilan uy vazifalarini qilishga vaqti bo'larmikan? Bizda xohlaganicha bolalarimiz bo'ladi,

ku, to'g'rimi? O'z-o'zidan savol tug'iladi: ish o'rni yetishmasa, nima bo'ladi? Albatta, mehnat migratsiyasi sodir bo'ladi. Globallashuvning asosiy omillaridan biri bu — mehnat migratsiyasi. Hozirgi kunda dunyoda 150,3 million kishi mehnat migranti sifatida turli mamlakatlarda ishlamoqda. Davlatimiz rahbarining ijtimoiy sohaga bag'ishlangan so'nggi majlislarida maktabni bitirgan 380 ming o'quvchidan 180 mingga yaqini oliy ta'limda o'qishini davom ettirayotgani, qolgan 200 ming yigit-qizimiz hunarsiz mehnat bozoriga kirib kelayotganini kuyinib gapirganiga guvoh bo'ldim. Yangi O'zbekiston davrida yoshlarimizga hech qachon bo'lmagan sharoitlar yaratilganini butun dunyo e'tirof etmoqda. Ta'limni rivojlantirish yo'lida sa'y-harakatlardan tashqari, yoshlarimizni hunarga o'rgatish uchun har bir tumanda barcha sharoitlarga ega monomarkazlar bunyod etildi. Ularga bugungi kunda eng talabgir kasb-hunarlar o'rgatib kelinmoqda. Ta'limda o'zini ko'rmagan yoshlar, hech bo'lmasa, bir hunar egasi bo'lib, o'z kelajagini barpo etishi asosiy maqsad.

Sababi bizning vatandoshlar ham turli o'lkalarda mehnat qilmoqda. Ish bilan ishning farqi bor, deganidek, arzimagan pul uchun oddiy qora yumushda ishlash qiyinlash boshqa yoki mayli, diplom bo'lmagan, lekin o'z hunarining ustasi sifatida 2-3 barobar ko'p daromad qilish boshqa. Hozirgi kunda faqat diplom kerak bo'lgan mutaxassislik sohalari emas, balki santexnik, chilingar, elektrik, liftchi, duradgor, tikuvchi, chidolatchi va boshqa kundalik turmushda doim kerak bo'ladigan kasb va hunarlarga dunyo miqyosida talab yuqori. Rivojlangan mamlakatlar — Germaniya, Koreya, Yaponiya, BAA va Saudiya Arabistoni kabi davlatlar yaxshi hali to'lanadigan ishlariga minglab ishchilar kerakligini aytmog'unda. Yagona talab o'sha mamlakat tili yoki ingliz tilini bilish kerak. Xo'sh, bizning yoshlar nechta tili biladi? Sovuq yurtlarda qiyinlashib, ba'zi shovinizt va skinxendlar tahqiriga uchrab, ko'pi bilan 500 dollarda ishladigan ko'ra, barcha huquqlari va mehnat qonunchiligi mavjud rivojlangan mamlakatlarda 2-4 ming dollar ishlash afzal emasmi? Kecha bir xabar o'qidim: Germaniya davlati yiliga 50 ming ishchiga kvota berishini ma'lum qildi. Xo'sh, shuncha tili biladigan odamimiz bormi? Shuning uchun Prezidentimiz o'rta va professional ta'limda tashil oluvchilar eng kamida ikkita xorijiy til va bir hunar o'rganishini kuyinib gapirib keladi.

Bizning oldimizda jaddid bobolarimiz orzu qilgan yo'li bor. Bu — millat kelajagini o'ylaydigan, vatanparvar farzandlarni voyaga yetkazish yo'li. Zero, millatimiz oydinlari bot-bot ta'lim va tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot ekanini ta'kidlab kelgan.

Bugun tarix bizga noyob imkoniyat beryapti, yangi O'zbekiston farzandlarini dunyoning baland sahnalariga olib chiqish yo'limiz. Yoshlarimiz oz emas, ko'p, ammo gap sonda ham emas, sifatda. Bugun dunyoda insoniyat xas-cho'pdan ungan daraxtga raqam qo'yib, pasport beryapti. Bas, shunday ekan, Allohning yaratgan oliy mavjudoti bo'lmish insoniyatga, uning hayot tarziga, munosib yashashiga va iqboliga jo'ngina qarash mutlaqo noto'g'ridir!

Statistika

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotiga ko'ra, 2023-yil 1-oktabr holatiga respublikamizning doimiy aholisi 36 599 764 kishini tashkil etgan. Respublikamizning doimiy aholisi soni 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda 2,2 foizga oshgan.

- Mamlakatimiz aholisi 2023-yil boshidan buyon 574,8 ming kishiga ko'paygan.
- O'zbekiston aholisi 2023-yilda har oy o'rtacha 63,9 ming kishiga oshgan.
- 2023-yilda doimiy aholi soni har kuni o'rtacha 2,1 ming kishiga ko'paygan.

AYOLLAR SONI – 18 176 873 kishi
ERKAKLAR SONI – 18 422 891 kishi

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra,

2023-yilda O'zbekistonda 961 962 nafar tug'ilish qayd etilgan. Bu ko'rsatkich 2022-yil bilan solishtirilganda 29,8 ming nafarga oshgan.

2023-yilda oylar kesimida qayd etilgan tug'ilishlar soni:

- yanvarda – 76 211 nafar
- fevralda – 64 879 nafar
- martda – 73 948 nafar
- aprelda – 65 787 nafar
- mayda – 81 138 nafar
- iyunda – 72 609 nafar
- iyulda – 95 374 nafar
- avgustda – 97 310 nafar
- sentabrda – 89 629 nafar
- oktabrda – 90 451 nafar
- noyabrda – 80 088 nafar
- dekabrda – 74 538 nafar

qariyalari ulushidan oshib ketganda va tug'ilish pasayishi natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy o'sish salohiyati.

Prognozlariga ko'ra, tug'ilish sur'ati 2030-yilgacha bir maromda (o'rta 900-950 ming) davom etadi va aholi soni 41 milliondan oshadi. 2030-yilga borib, 18 yoshgacha bo'lganlar va mehnatga layoqat yoshidan kattalar soni mos ravishda 2384 ming va 1447 ming kishiga o'sishi kutilmoqda. Demografik sakrashlarning ijobiy va salbiy jihatlari mavjud.

uchun ishlatiladigan bilimlar, ko'nikmalar to'plami. Inson potensialini tashkil etuvchi turli xususiyatlar ichida inson kapitali aynan daromadlarning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi xususiyatlarni ifodalaydi. Shu jihatdan inson kapitali ishchining maxsus ta'lim, kasb-hunar egallagan va ishlab chiqarish tajribasi asosida to'plagan bilimlari, ularni amalda qo'llashi va mahoratini o'z ichiga oladi.

Dunyo tajribasi va amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, aynan inson kapitaliga investitsiya yo'naltirishni ustuvor vazifa sifatida tanlagan mamlakatlar yuksak taraqqiyotga erishmoqda. Chunonchi, rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishiga, ya'ni bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, oilada farzandga sarflangan har 1 dollar kelajakda 8-15 barobargacha ko'paygan holda qaytadi. Demak, eng yaxshi investitsiya o'z farzandimizga qilingan investitsiya ekan.

Bizda inson kapitaliga yondashuv qanday? Menimcha, maqarli darajada emas. Oilani rejalashtirish kabi zamonaviy bilimlarga ega bo'lmagan yosh oilalarimiz hali o'zini to'liq ta'minlay olmagan holda (ko'pchiligi o'ila qurgandan so'ng ham ota-onasi qaramog'ida) farzandli bo'ladi. O'z navbatida, bu o'ila budjetiga qo'shimcha yuklarni o'z yoshini boshlaydi. Har bir tug'ilajak bola o'ila budjetidagi alohida xarajat degani. Odatda bunday holatlarda rizqni Alloh beradi, deymiz, ammo bu e'tiqod ostida amaliy harakatlar bo'lishi zarur. Allohga tavakkal qilib, shunday bo'lishi kerak, deyish noto'g'ri. Sendan harakat, mendan barokot, degan naqlni yodda tutishimiz kerak. Lekin bugungi kunda 4-5 nafar farzandi borlar sifati ta'minot (oziq-ovqat, kiyim-kechak) va ta'lim bera olishga qay darajada qodir? Ha, biz o'tmishni eslab, misol keltirishni yaxshi ko'ramiz: bobo-buvilarimiz 10-14 farzandni

kiyib katta bo'lmadimi? Bu ularga butun umrga yetgulik ruhiy jaroht yetkazmadimi? Biri 6, yana biri 7 nafar farzandni dunyoga keltirgan ko'pchilik buvilarimiz o'zi tug'ilib o'sgan joyidan tashqari chiqmagani armon bilan yodga olishini hozir ham eshitib qolamiz.

Xo'sh, ko'p farzandli bo'lish orzusidagi oilalarimizda yetarli jamg'arma, resurs mavjudmi? Yoki ular ham o'zlarini, ham farzandlarini qiyab yashashni istaydimi? Hozirgi zamonaviy yoshlarning moddiy ehtiyojlari kun sayin ortib bormoqda. Yaxshi ovqatlanish, zamonaviy kiyimlar, sifatli ta'lim va tibbiyot ozmuncha mablag' talab qilmaydi va farzandimiz o'z tengqurlaridan kam bo'lishini istamasangiz, shu narsalarni ta'minlab olishga qodir bo'lishingiz kerak. Shuning uchun aholishunoslik bo'yicha mutaxassislar hozirgi oilalarda 2, ko'pi bilan 3 farzand bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Chunki inson kapitali rivoji uchun ham sifat muhim. Farzandlarimizga sifatli ta'lim, zamonaviy bilimlar, agar hunarga qiziqsa, qo'shimcha ko'nikmalar bera olishimiz kerak.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, Uchinchi Renessans poydevori bilim va ilm bo'lishi kerak. Bir misol: zamonaviy kasblar orasida IT mutaxassislari juda talabgir, yoshlarda ham bu sohaga qiziqish katta, farzandimiz shu sohada o'qishi uchun ham zamonaviy kompyuter qurilmasi, gadjet, smartfon, bookreader, o'quv kurslari uchun esa mablag' zarur. Yoshlar o'qish va sayohat uchun chet davlatlarga chiqishi bugungi kunda oddiy holga aylandi, bu, albatta, yoshlarga foydali, chunki xorijiy davlatlarda ular yangicha dunyoqarash, qo'shimcha bilimlar o'rtirmoqda va xorijdagi tengdoshlari bilan ham o'z sohalari bo'yicha raqobatga kirishmoqda. Barchamiz farzandlarimizni shunday yoshlar qatorida bo'lishini, albatta, istaymiz. Buning uchun yoshlikdan uning ta'limiga, ko'nikmalariga pul tikishimiz kerakligini yaxshi ang'lashimiz zarur. Yana bir narsa: millat ota-onalari o'z farzandlari

senga nima, ertaga qiyinlashib qolsam, davlat qilib bershni kerak, davlat qarasim, degan yondashuv mutlaqo noto'g'ridir. Davlat shundog ham ijtimoiy majburiyatlarini bajarib kelmoqda. Bizda kam sonli davlatlar qatori deyarli bepul davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti, 11-yillik bepul ta'lim, bepul poliklinika va tez yordam xizmati bor. Bularning bari bizga osmondan tushgandek go'yo. Aslida, ular bepul emas. Barchasi davlat byudjetidagi asosiy yuklamalar ekanini ko'pincha unutmiz. Davlat byudjetidan ijtimoiy sohaga trillionlab mablag' sarflanmoqda. Bizning yurtimizda inson kapitali — inson qadri bilan uyg'unlashib ketgan, desak mulohaza bo'lmaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishini, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz", deb aytgan.

MEHNAT BOZORI

Demak, ta'lim va ko'nikmalarga ega bo'lgan farzandlarimiz mehnat bozoriga kirib keladi. Shunda bizga ular olgan ta'lim sifati namoyon bo'la boshlaydi. Agar bir kunda yurtimizda o'rta 2,1 ming bola tug'ilayotgan bo'lsa, bu degani — kelajakda 2,1 ming ish joyi kerak bo'lishi anglatadi. Xo'sh, bir kunda 2000 ish o'rni yaratasa bo'ladimi? Yo'q, albatta, hatto dunyoning birinchi raqamli iqtisodi bo'lgan AQSH va Xitoyda ham bir kunda 2000 yangi ish joyi yaratilmaydi. Chunki bu iqtisodiy ilojisiz narsa. Siz har kuni yangi zavod yoki korxonaga barpo etilishini tasavvur qila olmayisiz-

AVTOMOBILSIZ KUN

Uning to'liq tatbiq etilishiga kim mas'ul?



Abdurauf QORJOVOV, iqtisodiy sharhlovchi

Boshlanishi 1-betda

Xalqaro "Avtomobilsiz kun"da bir qator tadbirlar o'tkazildi, lekin yana uyushqoqlik, ommaviylik unchalik yetishmadi. Balki Toshkent shahar hokimiyati kabi boshqa idoralar ham e'lon qilsak bo'ldi, hammasi o'z-o'zidan hayotga tatbiq bo'laveradi, tadbirlar tashkil etilaveradi, deb o'ylagandir. Amaliyot hali bunday ezgu maqsaddan juda orqada ekanimizni, milliy mentalitetimizda "Avtomobilsiz kun" xuddi yaqinlar osh torganidek, yangi ochilgan zamonaviy do'konida chegirmali tovarlar sotilganidek, chet ellik xonandalar tekin konsert berganidek ovoza bo'lmaganini amalda ko'rsatib turibdi.

Davlatimiz rahbarining ayni kunda muhokamada bo'lgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni loyihasida keng jamoatchilik vakillarining ekologiyaga avtomobillardan chiqindi gazlar ta'sirini kamaytirish maqsadida Toshkent shahrida o'yniy bir ish kuni davomida transport harakatlanishini qisqartirishga qaratilgan "Avtomobilsiz kun" tadbirini amalga oshirish to'g'risidagi taklif ma'qullangan. Bunda binosi poytaxtda joylashgan barcha respublika hamda hududiy ijro etuvchi organlarining rahbarlari va xodimlari jamoat transportida ish joyiga kelishi orqali aholiga namuna ko'rsatishga urg'u berilgan. Uning to'liq, sifatli va so'zsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi, Transport vazirligi va Toshkent shahar hokimligi belgilanishi ko'zda tutilgan.

Nazarimizda, mazkur vazifalar ijrosini ta'minlashda xorij tajribasini o'rganish va milliy mentalitetimizni inobatga olgan holda ish tutish qo'l keladi.

XORIJ TAJRIBASINI HISOBGA OLGANDA...

Aslida, "Avtomobilsiz kun" g'oyasi o'tgan asrning 70-yillari boshida neft narxining keskin ko'tarilib ketishi sababli paydo bo'lgan. Oradan chorak asr o'tib, Buyuk Britaniyada ko'chalarda avtomobillar sonini kamaytirish maqsadida konsorsium tuziladi va mamlakatda dastlabki

milliy aksiya o'tkaziladi. 2001-yilga kelib, bu harakatga jahonning 35 davlatidagi mingdan ortiq shaharlar qo'shildi. Ayni kunda esa bunday tadbirlarda dunyoning 1500 dan ortiq shahrida yashovchi 100 milliondan ziyod aholi ishtirok etishi an'ana aylandi. Uning qamrovi va o'tkazish muddati ham oshib boryapti, aksar mamlakatlarda bu tadbir hafta mobaynida davom etadi.

Shu kunlari avtomobil haydovchilari shaxsiy transport vositalarini "qantarib" qo'yadi, velosipedda yurish, jamoat transportidan foydalanish, shuningdek, ish va dam olish joylariga piyoda borishni rag'batlantiruvchi maxsus aksiyalar tashkil etiladi. Misol uchun, Fransiyaning Parij shahri markazida faqat piyodalar yurishi mumkin bo'lsa, Angliyada velotadbirlarga katta e'tibor qaratiladi. Dunyoning boshqa mamlakatlarida jamoat transportidan foydalanishda haydovchilik guvohnomasini ko'rsatish orqali bepul yoki qisman to'lov bilan yurishlariga sharoit yaratiladi. Kafed, restoran va boshqa xizmat ko'rsatish shoxobchalari velosiped yoki samokatda kelganlarni chegirmalari bilan mamnun etadi. Bekatlarda yo'lchilarga turli xildagi esdalik sovg'alar taqdim etiladi...

To'g'ri, bugungi hayotimizni avtotransportsiz tasavvur qilish mushkul. Lekin ular uzoq imzini yaqin qilishi va boshqa qulayliklar yaratishi barobarida, chor-atrof biosferasi va inson umrining kushandasiga aylanib borayotganini ham unutmashimiz kerak. Buni ushbu hisob-kitoblarni ham tasdiqlaydi. Dunyoda har daqiqada korxonadan bitta avtomobil chiqib turgan hozirgi paytda uning turdoshlari kunga

3000 dan ortiq kishining hayotiga zomin bo'lyapti. Yo'llardagi qoida buzilishlar tufayli turli darajadagi tan jarohati olayotganlarning soni undan ham ko'proq. O'zbekistondagi holatni oladigan bo'lsak, 2022-yilda avtohalokatlar oqibatida 2350 dan ziyod inson vafot etgan, yana

kuzatilayotganini, ba'zilariga 2 karra ko'p yuklama tushayotganini ta'kidlaydi. Oqibatda kunning tig'iz paytida mizilga borish uchun 2 barobar ko'p vaqt sarflanmoqda.

"Shaharsozlik va yo'l harakatiga mas'ul barcha bo'g'indagi rahbarlar "Shahar



minglab kishilar turli darajadagi tan jarohati olgan.

Prezidentimiz shu yil 29-yanvar kuni o'tkazilgan yig'ilishda Toshkent shahrida tirbandlik katta muammoga aylanib borayotganini, ayrim ko'chalarda ish kunlari o'rtacha 7-9, ba'zan 10 ballik tirbandliklar

piyodalar uchun" degan shiorni o'zining asosiy tamoyili qilib olishi shart. Bunda, jamoat transportiga har tomonlama ustunlik berilishi, avtomobillar esa hashamatga aylinishi kerak", dedi davlatimiz rahbari.

AVTOMOBILLAR QANDAY QILIB HASHAMATGA AYLANISHI MUMKIN?

Gazetamizning shu yil 18-yanvar kuni sonida chop etilgan "Qaysi kuni avtomobil haydamagan ma'qul?" degan maqolada avtotransport vositalari soni yil sayin ortib borayotgani, bu, ayniqsa, Toshkent shahrida tirbandlikning oshishiga olib kelayotgani, atmosferaga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatayotganiga doir fikr va dalillar keltirilgan edi.

Oradan ko'p o'tmay, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abdulkhakov OAVdan biriga bergan intervyusida xuddi shu masalalarga doir hamohang fikrlarni bildirdi.

"2021-yili O'zbekistonda 3 million 200 mingga yaqin mashina bo'lgan, hozirgi kunga kelib, bu raqam deyarli 5 million (4 million 700 mingdan ortiq)ga yetdi. Toshkent shahrida har kuni taxminan 730 mingta mashina harakatlanadi, bundan tashqari, viloyatlardan kelgan avtomobillarni hisobga olsak, 160-300 mingga yaqin mashina har kuni poytaxtga kirib-chiqadi. Ya'ni Toshkentda har kuni 1 millionga yaqin avtomobil harakatlanadi. Ularning asosiy qismi AI-80 benziniida yuradi. Mashinalar soni ko'paygani, yo'l harakati to'g'ri tashkil etilmagan sababli tirbandliklar

2030-yilga qadar Toshkent va Nukus shaharlari, viloyatlar markazlarida "YEVRO-5" va undan yuqori standartlarga muvofiq bo'lmagan avtomobillar ekspluatatsiyasi bosqichma-bosqich cheklanishi ilgari surilgan. Lekin negadir AI-80 benziniidan foydalanishni cheklashga doir jihatlar e'tibordan chetda qolgan. Shu bois, farmonda 2025-yildan boshlab ana shu taqiq joriy etilishi belgilansa, maqsadga muvofiq kelardi. Buning mohiyatini A.Abdulkhakov o'z intervyusida shunday bildirgan edi.

Bugunning gapi



ortadi. Tirbandlikda qolgan mashina motori ko'p ishlab, havoga yanada ko'proq zararli moddalar chiqaradi...

Umuman olganda, piyoda yurish, velosipeddan foydalanish imkoniyatlari bo'yicha ko'chalarimizni ko'rib chiqadigan bo'lsak, piyoda yurish uchun yo'llar yoki veloyo'llar deyarli yo'q. Chet elda mahalliy organlar bu borada qat'iy, samarali qaror qabul qiladi. Aytaylik, yo'lning har bir tomoni uchta qatorli bo'lsa, shuning ikki qatorini faqat mashinalarga qoldirib, bir qatorini to'lig'icha velotransportga ajratadi. Nimaga biz shuni qilib ko'rolmaymiz? Shu narsalarni ham o'ylashimiz zarur. Biz bu narsadan qo'rqishimiz kerak emas.

Yoki elektromobilla o'tayotgan aholimizga qo'shimcha subsidiyalar to'g'risida o'ylaylik, yengilliklar to'g'risida o'ylaylik — boshqa davlatlarda bu keng qo'llaniladigan amaliyot va biz hozirgi kunda tez rivojlanayotgan davlat sifatida ham bunday choralarini ko'rishimiz, bular biz uchun qandaydir imkonsiz choralar, deb o'ylamaslik kerak.

Mazkur vazirlik esa transport vositalarining ekologiyaga ko'rsatilayotgan salbiy oqibatlarini kamaytirish maqsadida "Yevro-4" standartidan past ekologik toifadagi motor yoqilg'idan (AI-80 rusumli benzin) foydalanishni taqiqlash, avtotransport vositalari tirbandligini kamaytirish va harakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida Toshkent shahri hududida kunning tig'iz vaqrlarida (ertalabki soat 07:00 dan 10:00 ga va 17:00 dan 20:00 ga qadar) yuk tashish uchun mo'ljallangan, vazni 3,5 va 12 tonnadan ortiq transport vositalari harakatini cheklashni, 2010-yilgacha ishlab chiqarilgan barcha toifadagi avtomobillarning harakatlanishini taqiqlash, elektromobillarga o'tish uchun imtiyozlar, preferensiyalar va subsidiyalar berilishi yo'lga qo'yish, yo'llarda yuzaga kelayotgan tirbandliklarni kamaytirish uchun tajriba tarqisida ulami "juft va toq" kunlarda boshqarish qoidasini joriy etishni taklif qilgan edi.

Aytish joiz, bu fikrlarning muayyan qismi "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Prezident farmoni loyihasida ham inobatga olingan. Xususan, unda 2024-yilning 1-martidan boshlab Toshkent shahrida yuk tashish uchun mo'ljallangan, ruxsat etilgan to'liq vazni 10 tonnadan yuqori bo'lgan N2, N3, O4 toifaga kiruvchi avtotransport vositalarining harakati tig'iz vaqt oraliklarida taqiqlanishi nazarda tutilgan. Bunday cheklovlar maxsus xizmat, shu jumladan, kommunal xo'jaligi, obodonlashtirish va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining yuk transporti vositalariga taqiq etilmasligi belgilangan.

2030-yilga qadar Toshkent va Nukus shaharlari, viloyatlar markazlarida "YEVRO-5" va undan yuqori standartlarga muvofiq bo'lmagan avtomobillar ekspluatatsiyasi bosqichma-bosqich cheklanishi ilgari surilgan. Lekin negadir AI-80 benziniidan foydalanishni cheklashga doir jihatlar e'tibordan chetda qolgan. Shu bois, farmonda 2025-yildan boshlab ana shu taqiq joriy etilishi belgilansa, maqsadga muvofiq kelardi. Buning mohiyatini A.Abdulkhakov o'z intervyusida shunday bildirgan edi.

"AI-80 benzini taqiqlanadigan, AI-90, AI-92 benzini o'z o'ladigan bo'lsa, olimlarimizning hisob-kitobiga ko'ra, havo sifati 40 foizga yaxshilanadi. Bu — fakt.

AI-80 benzini taqiqlagandan keyin bu ham o'ziga yarasha kimgadir qo'shimcha iqtisodiy yuk bo'ladi, deb aytilish mumkin, buni ham oldindan bilish kerak. Ekologiya masalalarining yechimi eritaga qo'shimcha iqtisodiy xarajatlar keltirib chiqarishni yaxshi tushunish lozim. Lekin bir narsani aytilish mumkinki, birinchidan, AI-80 benzini, haqiqatan, juda toksik, sog'liqqa zarar, zaharli. Ikkinchidan, AI-80 benzini AI-90, AI-92 benziniidan ko'ra kamroq masofaga yetadi, moy ko'proq yeydi, xarajati ham 100 kilometr masofaga hisoblab chiqsangiz, AI-92 bilan deyarli bir xil, motor tezroq ishdan chiqadi".

Avtomobillarni hashamatga aylantirishga kelganda, xorij tajribasi, xususan, Xitoyda qo'llanilayotgan amaliyot joriy etilishi ma'qul. Gap shundaki, bu mamlakatda avtomashinani sotib olish qiyin emas. Chunki narxini ularning o'zi belgilolmaydi, JSTning talablari asosida undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar juda qimmat turadi. Bundan tashqari, Pekinda avtomobillarga davlat raqamlarini olish jarayoni murakkab qilib qo'yilgan. Ya'ni raqamni sotib olish uchun lotereyada ishtirok etish yoki yillar davomida kutishga to'g'ri keladi. Yoxud auktsionda qatnashib, 100 ming yuan va undan yuqori (13,8 ming dollar) to'lovni amalga oshirish kerak. Ammo buning uchun ham talablar bor: Pekinda so'nggi besh yil davomida yashash, soliq to'lash, ijtimoiy sug'urtaga ega bo'lish kerak va hokazo.

Havo ifloslanishi o'ta yuqori bo'lgan kunlarda transport harakati uchun talablar kuchaytirilib, shaxsiy avtomobildan haftada to'rt kungacha foydalanish mumkin bo'lgan qoida joriy etilgan. Toq raqamli kunlarda davlat raqamli toq raqamli, juft raqamli kunlarda davlat raqamli juft raqamli bilan boshlanadigan transport vositalari harakatiga ruxsat beriladi.

Pekin ma'uriyati 2023-yilda 100 ming dona davlat raqamini chiqarishga qaror qilgan bo'lsa, shundan 70 mingtasi elektromobillar uchun berilgan. Elektr va gibrid transport vositalari uchun "yashil" davlat raqamlarini bepul olish mumkin.

Farmon loyihasida 2024-yil 1-martdan boshlab hududlarda chang bo'rni sodir bo'layotganda va havo tarkibida mayda dispers zarrachalari belgilangan normadan yuqorigi aniqlanganida aholini, ayniqsa, yurak, qon-tomir va nafas yo'llari kasalliklariga chalingan fuqarolarni zarur profilaktik choralar to'g'risida doimiy xabarдор qilish amaliyoti yo'lga qo'yilishi, 500 va undan ortiq kvadrat metrlik qurilish maydonida, unga kirib-chiqish yo'llarida chang va qum zarrachalarining havoga ko'tarilishini bartaraf qilish bo'yicha majburiy talablar joriy etilishi nazarda tutilgan.

Bunday chora-tadbirlarni joriy etishdan ko'zlangan asosiy maqsad — eng avvalo, tabiatni asrash, avtomobillardan chiqayotgan turli zaharli gazlar orqali atmosferaning zaharlanishini kamaytirish, qolaversa, piyoda yurish va velosipedda sayr qilishni keng targ'ib etishdan iborat. Bu esa, o'z navbatida, aholi orasida sog'lom turmush tarzini keng ommalashtirishga xizmat qiladi.

Munosabat

Yangicha tizim:

Raqobat bo'ladi, bunyodkorlik ishlari tez va maqsadli amalga oshiriladi



Kozimjon ANVAROV, Farg'ona shahridagi "Yangi O'zbekiston" massivi qurilish shtabi boshlig'i

Davlatimiz rahbari uy-joy va kommunal xo'jaligi, qurilish, transport va ekologiya sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida soha rivojiga to'siq bo'lib kelayotgan turfa masalalar yechimiga to'xtalib o'tdi. Unda qayd etilgan barcha masalalar aholi kundalik hayot tarzi, ularning ertangi kuni uchun juda muhimligi bilan e'tiborni tortadi. Tanqidiy, ochiq muloqot ruhida o'tgan yig'ilishda har bir tizim va har bir hudud mutasaddilari aholining hayot sifati, turmushini yaxshilash uchun qilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar belgilab berildi.

Farg'ona shahrida bunyod etilayotgan "Yangi O'zbekiston" massivi o'ziga xos me'moriy qiyofaga ega shaharcha sifatida ko'pning e'tiborini tortadi. Asosiy, ekologik toza, "yashil" iqtisodiyotga asoslangan loyihalardan foydalanmaymiz. Har bir uy energiyatejamkor. Shahar ob-havosini mo'tadillashtirish, hududni obihoyot bilan ta'minlash maqsadida umumiy uzunligi 11 kilometr bo'lgan kanal qurilishi poyoniga yetdi. Mavjud suv resurslaridan unumli foydalanish maqsadida ariqlar betonlashtirildi, "aqli" sug'orish tizimlari o'rnatildi. Sun'iy ko'l va zamonaviy favvoralar qurilishi yakunlanmoqda. Yetmish gektarli "Yangi O'zbekiston" bog'ida "Yashil makon" umummilliy loyihasi bahor va kuzgi mavsumining o'zida 15 mingdan ortiq daraxt va gul ko'chati o'tqazildi. Xonadonlarni issiqlik bilan ta'minlash maqsadida 21 ming megavatt quvvatga ega markazlashgan isitish qozoni qurilmoqda. Shu kunga qadar dastlabki 73 ta ko'p qavatli uy-joy, 420 o'rinli 3 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti, 990 o'rinli 2 ta umumta'lim maktabi, 250 qatnov o'miga ega markaziy poliklinika qurilishi bitkazildi.

Shu bilan birga, oldimizda yechimini kutayotgan, ishimizga to'g'onoq bo'lib turgan

masalalar ham bor. Qurilayotgan uy-joylar mustahkam va sifatli bo'lishini muntazam nazorat qilib boryapmiz. Bundan tashqari, xavfsizlik choralariga rioya etish, ishchi-xizmatchilar malaka va mahoratini oshirish, qurilishda yangi texnika va texnologiyalardan foydalanish muhim amallarimizdan.

Videoselektorda qurilishlar sifatini yanada yaxshilash, tanarxini arzonlashtirish bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratildi. Qurilish sohasida ishlayotganimga yarim asr bo'ldi. Lekin qurilish inshootlari sifati va iqtisodiy samaradorligiga bugungidek e'tibor berilmagan. Endi loyihadan boshlab obyektini foydalanishga



topshirguncha bo'lgan barcha jarayonlar yangicha tashkil etilishi belgilab berildi. Eski resurs usulidan voz kechilib, hajm asosida ishlash tizimi joriy etilyapti. Bu byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish, talon-tarofliklarning oldini olish bilan birga, qurilish ishlari tez va sifatli bajarish imkoniyatini oshiradi. Chunki har qanday quruvchi o'z manfaatini ko'zlab, ishni tez va sifatli bajarish choralarini izlaydi. Bu jarayon quruvchilar o'rtasida o'zaro raqobatni rivojlantiradi.

Qurilish bilan bog'liq barcha shartnomalar va inshootni foydalanishga qabul qilish jarayonlari raqamlashtirilishi sohada ochiqlik va shaffoflik asosida ishlashni rag'batlantiradi. Ishlab chiqaruvchi, quruvchi, nazoratchi ham qurilish materiallari qayerda qancha turishini onlayn kuzatib boradigan yangi tizim yaratilgani ayni muddao bo'ldi. Bu uy-joy va boshqa qurilish jarayonlarida narx-navoni sababsiz oshirib ko'rsatish, qurilish tanarxini sun'iy qimmatlashtirish bilan bog'liq muammolar yechimiga asos bo'ladi. Shahar va shaharchalar bosh rejasini ishlab chiqishda "Mening hududim" platformasi ishga tushirilib, har bir reja aholi bilan muhokama qilinishi va uning ijrosi bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatish tizimi yo'lga qo'yilishi aholi faolligi, daxldorlik hissini uyg'otishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari yangi uy-joylar tanarxini arzonlashtirish masalasiga alohida to'xtalib o'tdi. Bunda quruvchi kompaniyalarni moliyaviy resurs bilan ta'minlash maqsadida ipotekani qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil qilinishi belgilandi. Bu quruvchilarni kerakli mablag' bilan ta'minlashda o'ziga xos imkoniyat eshklarini ochadi.



www.yuz.uz



2024-yil 7-fevral, 27-son

2024-yil – Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili

Raqamlashtirish — bugungi zamon talabi. U xizmatlar sifatini oshirish, ishlab chiqarishni optimallashtirish, tashkilot va korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish, biznes jarayonlarini avtomatlashtirishni o'z ichiga oladi. Oddiy qilib aytganda, bu yo'nalish aholining uzog'ini yaqin, og'irini yengil qilish, barcha sohalarning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Shu bois, keyingi yillarda zamon talabidan kelib chiqib, mamlakatimizda telekommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash, soha va tarmoqlarni raqamlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Birgina o'tgan yilda ta'lim, bank, moliya, boj-xona, qishloq xo'jaligi, geologiya, kadastr kabi sohalarni raqamli transformatsiya qilish doirasida 100 ta dasturiy loyihaga ishlab chiqildi. 500 dan ziyod yangi IT kompaniyalari tashkil etilib, sohaga 475 million dollar to'g'ri xoriy investitsiya jalb qilindi.

Albatta, bunda ushbu sohaga kirib kelayotgan yosh kadrlar salmog'i va hisssasi muhim ahamiyat kasb etadi. Birgina misol, 2022-yilda 18 ming, 2023-yilda 24 ming yosh IT da yuqori daromadli

bugungi kunda Rossiyaning bir qator maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlariga mobil ilova, saytlar yasab berdik. Ayni paytda yuritimizdagi korxonada va tashkilotlarga ham ana shunday xizmatlarni ko'rsatib kelyapmiz. Hozir muhim loyihaga ustada ish olib boryapmiz. Bu — ko'zi ojizlar uchun brayl yozuvini tarjima qilib beradigan mobil ilova. Kelajakda dunyoni zabt etadigan loyihalarni ishlab chiqish orqali yuritimizdagi iqtidorli yoshlar salohiyatini jahonga tanitishni maqsad qilganmiz.

Umuman olganda, joriy yilda axborot texnologiyalari xizmatlari hajmini 20 trillion so'm, eksportni 800 million dollarga yetkazish, tarmoqlarda 130 ta axborot tizimini joriy qilish va



Hakim Yo'ldoshev olgan suratlardir.

sharoit va imtiyozlar natijasida bunday korxonalar va ish o'rnlari soni, xizmatlar eksporti ortib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, 2017-yilda yuritimizda IT kompaniyalar soni 147 ta bo'lgan, hozirda esa 1600 taga yetgan. Ushbu yo'nalishda yaratilgan ish o'rnlari ham qisqa vaqtda 10 barobar ko'payib, 24 mingtadan oshgan.

My.gov.uz yagona portali orqali bugungi kunda 8 millondan ortiq aholi va tadbirkorlar 570 turdagi onlayn xizmatdan foydalanmoqda. Ijro intizomi yagona tizimi — ijro.gov.uz orqali davlat idoralari va ularning quyi bo'g'inlari xodimlari tomonidan 28 millionta hujjat elektron ayiriboshlangan.

Shuning uchun ham bugun IT infratuzilmasini yaxshilash, soha va tarmoqlarni raqamlashtirish, hududlarda axborot texnologiyalarini rivojlantirish hamda davlat boshqaruvi raqamlashtirish doimiy diqqat markazida.

Surxondaryolik Mohirbek Xushboqov 13 yosh

Umuman, yangi imkoniyatlar hisobiga 2024-yilda IT xizmatlari hajmini ikki barobar oshirish mumkin.

Mutaxassislar ta'kidlashicha, bunga, birinchi navbatda, axborot texnologiyalari sohasiga yoshlarni qiziqitirish va malakali mutaxassislar tayyorlash, IT-parkni xalqaro miqyosga olib chiqish va xoriy vakolatxonalarini sonini oshirish orqali erishish mumkin. Shu bilan birga, IT eksportini diversifikatsiya qilish, ya'ni faqatgina AQSH yoki Yevropa davlatlari emas, balki Yaqin Sharq, sharqiy va g'arbiy Yevropa mamlakatlarini qamrab olish orqali yuqorida qayd etilgan ko'rsatkichlarga erisha bo'ladi.

AKT sohasini yanada rivojlantirish va global talablarga javob beradigan zamonaviy IT infratuzilmasini yaratish uchun xususiy kapitalni keng jalb qilish hisobiga raqamli infratuzilmani moliyalashtirishni oshirish zarur bo'ladi. Bundan tashqari, IT sohasida ta'lim berish va kadrlar tayyorlashni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, IT innovatsiyalar va tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratish ham muhim ahamiyatga ega.

E'tirof etish kerakki, keyingi yillarda O'zbekiston AKTni rivojlantirish va

13 YOSHIDA OYIGA 250 DOLLAR DAROMAD TOPAYOTGAN DASTURCHI

IT sohasini rivojlantirishda hal qiluvchi kuchga aylanayotganlar



Lutfulla SUVONOV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

kasblarga ega bo'ldi. Aniq maqsadga ega bunday yoshlar bugun yuritimizda IT brendini shakllantirmoqda.

22 yoshida xususiy IT kompaniya ochib, 7 nafar tengdoshini ish bilan ta'minlagan, mahsulotlarini xoriyga eksport qilib kelayotgan farg'onalik Muhammadqodir Abduvoitov ana shunday yoshlardan.

Muhammadqodir “Focus Group” IT kompaniyasi rahbari. Bugungi kunda oyiga o'rtacha uch ming dollar daromad topyapti.

— Fikrimcha, bugun bu yo'nalishda faoliyat yuritish uchun yuritimizda barcha imkoniyat mavjud. Tengdoshlarimga ana shu qulay sharoitdan unumli foydalanishni maslahat bergan bo'larim, — deydi M.Abduvoitov. — Yana bir muhim jihat: hozir men bilan birga ishlayotgan tengdoshlarim ham oyiga ming dollar miqdorida daromad ko'rmoqda. Shu o'rinda bitta misol keltiraman: bu faoliyatni boshlaganimda birinchi bitta sayt yasab, 70 ming so'mga sorganman. Yaqinda esa bitta loyihaga uchun 20 ming dollarlik taklif oldik. Bu nimaning natijasi, albatta, Prezidentimiz tomonidan yoshlarga yaratilayotgan sharoit va imtiyoz, sohaga qaratilayotgan e'tibor samarasi.

Ayni paytda kompaniyamiz veb-saytlar, mobil ilovalar ishlab chiqaryapti. Faoliyat boshlaganimizga hali ko'p bo'lmagan bo'lsa-da,

750 ta davlat xizmatlarini to'liq raqamlashtirish vazifasi belgilangan.

Yuqorida qayd etganimizdek, har bir soha rivojida kadrlar tayyorlash muhim o'rinni tutadi. Mazkur yo'nalishda ham xuddi shunday. Bu borada “Bir million dasturchi” loyihasining mantiqiy davomati sifatida uzbekcoders platformasi orqali “Coursera” onlayn kurslarida yoshlar uchun ta'lim olish imkoniyati yaratildi.

Mazkur onlayn kurslarda 400 mingdan ortiq yoshlar ro'yxatdan o'tib, 200 mingga yaqini dasturlash yo'nalishi bo'yicha tegishli sertifikatga ega bo'ldi.

Keyingi uch yilda IT o'quv markazlari soni 300 dan oshdi. “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida ta'lim olib, sertifikatga ega bo'lgan yoshlar soni 1 million 200 mingni tashkil etdi. Xalqaro IT-sertifikatlarga o'qish xarajatlarini 50 foizgacha qoplab berish yo'lga qo'yildi. 215 ming nafar yosh xalqaro onlayn kurslarni bitirib, sertifikat oldi. Bularni davom ettirgan holda, kelgusi yildan boshlab har yili 5 ming iqtidorli yigit-qizni saralash, o'qitish hamda xalqaro mehnat bozoriga tayyorlash tizimi joriy etiladi.

Xorazmlik dasturchi Arslonbek Abdullayev ham bu sohani chuqur o'rganib, bugun yaxshigina daromad topmoqda.

— To'qqiz yilga yaqin xoriyda chilangar bo'lib ishlaydim, — deydi A.Abdullayev. — Bir do'stim mazkur sohani o'rganishni taklif qildi. Shu bilan birga, O'zbekistonda bu borada yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlarni aytib berdi. Shundan keyin IT sohasini o'rganishni boshladim va 5-6 oyda yaxshigina o'zlashtirib oldim. Shunday keyin “Maab Innovation” kompaniyasi ishga oldi. Ikki yildan buyon ana shu kompaniyada faoliyat olib boryapman. Bir oyda 800-1000 dollar atrofida daromad topaman.

Endi o'zingiz o'ylang. Ota-onadan, oiladan uzozda, o'zga yurtda musofirchilikda yurib, bu pulning yarmini ham topolmading. Eng achinarlisi, u yerdagi kamsitilish, og'ir mehnat, samarasiz, maqsadsiz kechgan ummi nima

bilan qiyoslash mumkin? Bir yillab uyni, yaqinlarimizni ko'rman paytlarimiz bo'ldi. Bu azoblarni so'z bilan ifodalash qiyin. Hozir oilam, ota-onam bag'rildaman. Farzandlarim tarbiyasi, o'qishi bilan shug'ullanaman. Sevimli ishim, uy-joyim bor. Men bilan birga ishlayotgan tengdoshlarimning ko'zidagi ertangi kunga ishonch, qat'iyatni ko'rib, xursand bo'laman. Qani endi buni oldinroq anglab yetganimda, bugungidek imkoniyatlar bo'lganida.

Yoshlarga aytmoqchi bo'lganim, hozir ushbu soha sirlarini chuqur egallab, xohlagan xoriy kompaniyasida bemaol ishlab olinadigan. Asosiysi, o'ziga ishonchi bo'lsa, o'z kompaniyasini tashkil etish uchun ham zarur barcha sharoit bor. Bundan foydalanish kerak. Zero, vaqt juda tez o'tib ketayпти, ertaga raqobat keskin kuchayib, bugungidek imkon bo'lmayligi aniq.

Qayd etish kerakki, bugun mazkur yo'nalish nafaqat yigitlar, balki xotin-qizlar uchun ham qulay va serdaromad sohaga aylandi. Ularning safi kun sayin kengayib borayotgani esa quvonarli, albatta. Ana shunday yoshlardan biri Toshkent Xalqaro Vestminster universiteti talabasi Zuhrā Abdurasulova.



— Bu sohaga kirib kelishdan oldin qayerga ishga kirsam, qancha daromad topar ekanman, deb ko'p o'yladim, — deydi Z.Abdurasulova. — Lekin ITni o'rganганиmdan keyin tushunib yetdimki, bu yo'nalishda tinmay mehnat qilsangiz, ham daromad, ham o'z o'ringizga ega bo'larsiz. Inson o'z o'rniga ega bo'lgandan keyin, albatta, u yerda yaxshi daromad oladi va hurmat qozonadi. Hozir bank sohasida faoliyat ko'rsatayapman. Shu kungacha olgan bilimlarimni aniq loyihalarga qaratyapman. Maqsadim xoriydagi eng ilg'or kompaniyalarda tajriba oshirish. Yuritimizga qaytib, o'zbek qizlariga dasturlashni o'rgatish, bu sohada o'zlarini topishga ko'maklashish.

Faoliyatimni boshlagan paytlarim 200-300 dollar daromad topgan bo'lsam, hozir bu ko'rsatkich ming dollar atrofida. Qizlarga, dugonalarimga aytmoqchimanki, hech narsadan cho'chimang, ITni puxta egallab, yuqori daromadli kasb egasiga aylaning.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasida ham mamlakatimizni mintaqaviy “IT-NUB”ga aylantirish maqsadi belgilangan. Bu davlat boshqaruvi va sohalarni raqamlashtirish, aloqa infratuzilmasini yaxshilash, IT ta'limni rivojlantirish kabi ko'p omillarni talab etadi.

Strategiyaning 33-bandida yoshlar o'rtasida IT sohasini yanada omallashtirish hamda xizmatlar eksportini oshirish maqsadida mazkur sohada 300 ming nafar yoshni ish bilan ta'minlash, maktab o'quvchilarini xalqaro IT bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasblarga o'rgatish vazifalari belgilandi.

Shuningdek, “Bir million dasturchi” loyihasini kengaytirish va har yili 15 ming nafar eng iqtidorli yoshlarni nufuzli xalqaro kompaniyalar talablariga mos dasturlar asosida tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu yo'nalishlarda ham bugun samarali ishlar, katta o'zgarishlar qilinmoqda. Axborot texnologiyalari subyektlari uchun yaratilgan

bo'lishiga qaramasdan bugun uning o'z kasbi va daromadi bor. Mohirbek “Bir million dasturchi” loyihasini tugatib, oyiga 250 dollar miqdorida daromad topyapti.

— Do'stlarim bilan viloyatimizdagi IT parkka borganimizda bu sohaga qiziqib qolganman, — deydi M.Xushboqov. — Darsdan bo'sh paytlarimda ana shu yerda dasturlash tizimlarini o'rgandim. “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida maxsus sertifikatga ega bo'ldim. Hozir 4-5 tengdoshimni yonimga olib, buyurtmalar qabul qilishni boshladik. Kelajakda esa 300-400 kishiga ta'lim beradigan IT akademiyasini tashkil etmoqchiman. Bugun yuritimizda bu borada barcha imkoniyat bor. Shunday ekan, undan to'g'ri foydalanish orqali orzumizni amalga oshirish mumkin.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, IT dagi imkoniyatlar yoshlar uchun keng yo'l ochmoqda. Bu sohani egallash uchun o'g'il-qiz bo'lish yoki yoshning ahamiyati yo'q. Faqat insonda xohish, intilish va aniq maqsad bo'lsa, bas. Bu yoshlar bugun nafaqat yuqori daromad topyapti, balki xalqaro maydonlarga kirib bormoqda. Eng asosiysi, imkoniyatlardan to'g'ri foydalanaypti va endilikda ularning safi yanada kengayadi.

Mamlakatimizda aloqa infratuzilmasini yaxshilash, soha va tarmoqlarni raqamlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Soha rivoji uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga alohida e'tibor berilyapti. Jumladan, IT kompaniyalari hududlardagi bo'sh turgan binolarga bir yil muddatga bepul joylashtiriladi, iqtidorli dasturchilarga bir yil ichida bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan kompyuter va texnikalar beriladi hamda 50 dan ortiq IT mutaxassisini ishli qilgan kompaniyalarning bir yil davomidagi ish haqi xarajatingiz 15 foizgacha qismi qoplab beriladi. Shu bilan birga, eksportchi korxonalar chetdan ekspert jalb qilish, xalqaro konferensiyalarda qatnashish xarajatlarining 50 foizi kompensatsiya qilinadi.

raqamlashtirish sohasida, ayniqsa, elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishda yuqori natijalarga erishdi. Shu bilan birga, Janubiy Koreya, Rossiya, Estoniya, Xitoy bilan davom etayotgan hamkorlik bilan bir qatorda, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSH, Singapur, Yaponiya kabi texnologik jihatdan rivojlangan davlatlarni mamlakatning IT sektoriga jalb qilish, xalqaro hamkorlik geografiasini diversifikatsiya qilish zarur.

Bundan tashqari, yagona elektron hujjat almashinish joriy etilishi vazirlik va idoralarning eng quydan to' markaziy apparatigacha bo'lgan tizimi qamrab olib, ularning ichki tizimini optimallashtirishga xizmat qilmoqda.

Yana bir muhim masalalardan biri, bu — davlat organlarini raqamlashtirish. Bugun raqamli texnologiyalar zamon talabiga aylanib bo'ldi. 2023-yil 20-dekabr kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida Prezidentimiz raqamlashtirishga e'tibor qilmagan rahbar korruptsiyaga qarshi kurashishga intilmagan, deya baholandi, deb alohida qayd etgan edi. Chunki bunday tashkilot zamon talabidan kelib chiqib rivojlana olmaydi.

Bugungi kunda raqamlashtirish borasida yaxshigina tajriba to'plandi. Lekin shunga qaramay, sohada ilg'or xoriy tajribasi asosida tizimni yanada takomillashtirib borish talab etiladi.

Xulosa o'mida ta'kidlash kerakki, raqamlashtirish sohasiga yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim drayveri sifatida qatnashmoqda. Bu yo'nalishdagi ustuvor vazifalar ijrosi esa ko'zlangan katta maqsadlarga erishishimizga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, aholining raqamli savodxonligini oshirish va texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Eng muhimi, raqamli ekotizim, IT infratuzilmasi va elektron xizmatlarga investitsiyalar milliy iqtisodiyotni yanada modernizatsiya qilish va barcha sohalarda inkluziv o'sishni jadallashtirishga zamin yaratadi.

Mustaqil hayotga yo'llanma

Yoshlarni kelajakka tayyorlayotgan maskan

Bobur Rajabov Nukus shahri yoshlar markazidagi “Biznes” klubga a'zo bo'lib kelganida tadbirkorlik to'g'risida unchalik yaxshi tasavvur va tushunchasi yo'q edi. Klubda ikki oy mobaynida biznes-reja, biznes-g'oya, bank kreditlari, marketing, soliq va reklama to'g'risida dastlabki ma'lumotlarga ega bo'ldi.



Oradan birmuncha vaqt o'tmay, Bobur o'zining “RB” kompaniyasiga asos soldi. Chet davlatlardan sanoat asbob-uskunalari olib

kelishni yo'lga qo'ydi. Shuningdek, “Bereketli nan” brendi ostida non mahsulotlari ishlab chiqarishni o'zlashtirdi. U nafaqat mahalliy bozorga, hatto Rossiya va Qozog'istonga ham ushbu brend ostida o'z mahsulotlarini yetkazib bermoqda. Eng muhimi, tadbirkor 30 kishini ish bilan ta'minladi.

— “Biznes” klubimiz 2020-yilda o'z faoliyatini boshlagandi. Tadbirkorlarga biznesga oid dastlabki ko'nikmalarni o'rgatish bilan birga, ishbilanmonlik ishtirokida mahorat saboqlari ham tashkillashtiryapmiz, — deydi “Yoshlar — kelajagimiz” jang'armasi Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali boshlig'i Gavhar Rejepova. — Har bir kursimizga 30 nafargacha yoshlar qabul qilinadi va tadbirkorlikning barcha sir-sinoatlari o'rgatiladi. Tadbirkorlarimiz mahorat daralarini o'z tajribalarida asosida o'tadi.

Bugunga qadar 200 dan ortiq bitiruvchimiz o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ygan. Masalan, “Sao'kele” brendi bilan milliy liboslar



ishlab chiqarayotgan dizayner qizimiz Dilnaz Adilchayevani chet davlatlarda ham yaxshi tanishadi. Ishbilanmonlik bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan klub bitiruvchilariga imtiyozli kreditlar,

subsiyada va loyihalarni amalga oshirishda ko'mak ham beriladi.

Nukus shahridagi “Yoshlar markazi” 2016-yili foydalanishga topshirilgan. Mazkur markazda

yoshlarning qiziqishlarini o'rttirish, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida turli to'garaklar tashkil etilgan. Jumladan, “Yoshlar zamonaviy raqsi”, “Robototexnika”, “IT markaz”, “Nemis tili”, “Biznes klub” va “Shaxmat” to'garaklari qoraqalpog'istonlik yoshlarni keng qamrab olmoqda.

Mazkur binoda faoliyat ko'rsatayotgan “SIRIUS IT Akademiya” markazidagi mashg'ulotlarda qatnashadik. — Kompyuter savodxonligi, SMM, mobilografya, robototexnika, grafik dizayn yo'nalishlari bo'yicha kurslar tashkil qilganay, — deydi markaz menejeri Alpanis Adilbekov. — Kurslarimizda qatnashuvchilar soni chegaralangan. Ammo qiziquvchilar ko'p.

Xalqimizda “Til bilgan el biladi” degan naql bor. Nargiza Shaniyazova shu naqlga amal qilib, “Yoshlar markazi”dagi “Nemis tili” to'garigida 9 oydan buyon saboq oladi. U xoriyiy tilni mukammal egallagach, Germaniyada ishlashni rejalashtirmoqda.

— To'garagimizda 9 ta guruh mavjud bo'lib, jami 100 ga yaqin o'quvchi nemis tilini o'rganayotir. Asosan, jamoat salomatlik texnikalarida hamshiralik ishi yo'nalishida ta'lim olayotgan yoshlar jalb qilingan, — deydi to'garak rahbari Aynura Yesnarova.



— Ko'pchilikning xabari bo'lsa kerak, O'zbekistonda Germaniyaga yoshlar ishga taklif etilmoqda. Talaba hamshiralarimiz nemis tilini o'rganib, ushbu davlatda o'z kasbi bo'yicha ishlaymiz maqsad qilgan.

Zamon talabiga mos markaz faoliyati bilan yaqindan tanishar ekanis, “Eh, sening yoshliging menda bo'lsaydi”, deb bextiyor havas qilganingizni sezmay qolmas. Yoshlar ishlari agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasidagi to'garaklarga tashrif buyuruvchi yoshlar soni kun sayin ortib bormoqda. Bu esa yaratilgan sharoitlardan navqiron avlod vakillari qoniqish hosil qilayotganidan dalolat. Markaz haqiqiy yoshlar maskaniga aylangan, desak mulohaza bo'lmaydi.

Minajatin QUTLIMURATOV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri



Oltin fond

Tirildi siz bilan O'ZBEK MAQOMI

“Shashmaqom” – barhayot musiqa ummoni



Munajat MO'MINOVA, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

UNESCONing Insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga musiqiy xazinamiz — “Shashmaqom” ham kiritilgan. Bu bilan faxrlanamiz, uning milliy musiqamiz peshtoqi ekani haqida bong uramiz, lekin aksariyatimiz “Shashmaqom”, to'g'rirog'i, maqomning o'zi nima ekanini tushunib yetavermaymiz.

akademik Yunus Rajabiy esa maqom ijrolarini takomillashtirgan, ularni keng ommaga yetkazishda jonbozlik qilgan. U “Shashmaqom”ni to'raligicha notaga tushirdi va yozib oldi, keyinchalik kitoblar va gramyozuvlar shaklida nashr ettirdi.

“Shashmaqom”ning shakllanishida juda ko'p musiqashunos olimlar ter to'kkan. Milliy musiqamizning birinchi akademigi, musiqiy “Xamsa” — besh jildlik “O'zbek xalq muzikasi” kitobi muallifi Yunus Rajabiy uy-muzeyida bo'lganida, professor Rustam Abdullayev aytganidek, biz ham uning chinakam maqom san'ati fidoiyisi ekanini anglab yetdik. Buyuk san'atkorning “Shashmaqom”dek musiqiy merosimizni nota bilan yozgan ish stolidagi o'chirg'ich, qalam, musiqiy ijod mashaqqatiga bir ishora ekanini his qildik. Zero, besh jildlik “O'zbek xalq musiqasi”dan tashqari olti jildlik mukammal asarni yaratish oson kechmagan. Bu noyob asarlar, Yunus Rajabiyning kuylar chalib notaga olgan qadrdon dutori, o'qigan va yozgan kitoblari achchiq choy bilan o'tkazilgan bedor turlarning jonsiz guvohlaridir. Shu ma'noda, O'zbekiston xalq hofizi Hasan Rajabiy otasining “Shashmaqom” bilan bog'liq faoliyati haqida bizga hikoya qilib berdi.

— Musiqiy durdonamiz bo'lgan “Shashmaqom”ni Yunus Rajabiy Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysi shahar va qishloqlarida ijod etgan nomdor, usta maqom ijrochilarining sozu ovozlari tinglab turib yozib olgan, — deydi H.Rajabiy. — Bu faoliyatga u o'zbek maqomlari borasida orttirgan katta tajribasi, ustozlari ko'rsatmalariga suyangan va ijodiy yondashgan holda kirishgan. Buning samarasi o'laroq, Yunus Rajabiy 1959-yilda O'zbekiston teleradiosi huzurida o'zi tuzgan Maqomchilar ansambli ijrosida besh yil



mashaqqatini tasavvur qildik. Ba'zi maqom asarlarining 3-4 xil variantini bir-biriga solishtirib, eng mukammal va originalini qayta ishlashi ham san'atkorning o'z ishiga bor mehrini berganidan dalolat. Ba'zi maqom qismlarining kuy jumalari to'lmaganidek tuzilgan joylariga tuzatishlar kiritgan. Ba'zan Yunus Rajabiyning o'zi tomonidan bastalangan yangi taronalar, talqinlar, soqiyonmalar va uforalar o'sha kuylarning davomi sifatida ijro etilib, nashr qilingan to'plamlari qatoriga kiritildi.

Alloma maqom matnini tanlashda mumtoz she'riyatimizning eng nodir, xalqchil asarlaridan va o'zbek xalq og'zaki ijodiyotidan nihoyatda ustalik bilan foydalana oldiki, bu borada unga katta yordam bergan shogirdi Ishaq Rajabovning quyidagi e'turofini keltirish kifoyasi: “Yunus Rajabiydek g'azalni bir kuyga mos tushira biladiganini ko'rmadim. Mingdan

bu bebaho to'plam 1966-yilda butun dunyo xalqlariga ham armug'on etildi. Qarabsizki, o'zbek maqomlari shuhrati qardosh Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Turkmaniston, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Yugoslaviya, Ruminiya, Olmoniya, Yaponiya, Amerika, Turkiya, Arabiston va boshqa chet davlatlarga ham tarqalib ketdi. Shuning uchun 1973-yilda “O'zbektelefilm” tomonidan ishlangan to'liq metrajli “Shashmaqom” filmi dovrug'i ham butun dunyoga yoyilib, katta sovrinlarni qo'lga kiritgan, zo'r olqishlarga sazovor bo'lgandi.

Yunus Rajabiyning maqomlarimizni notaga olish, ularni boyitish borasidagi barcha mashaqqatlari — qahramonona mehnat. Ayni mehnat ortidan o'zbek maqomlarining go'zal va betakror ijro yozuvlari yaratildiki, olti maqom oltin merosga aylandi. Akademik san'atkor “O'zbek xalq musiqasi” va “Shashmaqom”ni yaratishda kimlar unga yordam bergan bo'lsa, o'shalarga qulluq qildi, e'zozladi, ta'zim keltirdi. Shuningdek, ularni ardoqlab, nomlarini olamga yoydi. “Shashmaqom” o'zbek xalqining o'chmas, nafis musiqasi asarlari, oltin merosimiz bo'lgani holda, Yunus Rajabiyning mumtoz musiqamiz bobokaloni, maqom allomasiga aylantirdi.

— Kitobni yaqinda qayta nashr ettirdim. “O'zbek maqomlari” — “Shashmaqom” sarlavhasi bilan katta hajmda 2007-yilda UNESCO tashkiloti hisobidan ham nashr etildi. Buning uchun O'zbekistonda UNESCO vakolatxonasi boshlig'i Maykl Barri Leynga Rajabiyilar sulolasining cheksiz minnatdorligi va tashakkurini bildirdik, — dedi suhbat so'ngida Hasan Rajabiy.


Dunyoning ko'plab mamlakatlari, o'lkamizda yashaydigan turli millatlar, ayniqsa, tojik xalqi va buxoroli yaxudiyolari orasida “Shashmaqom” chuqur o'zlashtirilgan. Ular ham ushbu durdonalarning rivoj topishiga hissa qo'shgan. Tojikistonda ham “Shashmaqom”ning o'ziga xos sheva va uslublarida yangrashi, u yerda maqomchilar ansambli tuzilishi, “Shashmaqom” kitoblarining nashr etilishi fikrimizni tasdiqlaydi. Shuni aytib o'tish joizki, o'zbek maqomlari fors-tojik g'azaloyi bilan ham o'ziga xos joziba bilan kuylab kelingan. Bu esa ikki xalqning har jihatdan mushtarak yashashiga xizmat qilmoqda. Yurtimizda Xorazm, Buxoro, Farg'ona — Toshkent maqom yo'llarida ijod qilayotgan maqomchilarning munosib izdoshlari yetishib chiqqani quvonarli. Maqom yo'llarining o'zi alohida bir mavzu bo'lgani bois, bu borada kengroq to'xtalishni dilga tukkanmiz. Zero, “Shashmaqom”ning mohiyatini anglatish uchun qancha-qancha kitoblar yozilmadi, ilmiy ishlar olib borilmadi, deysiz.

Hozircha xulosamiz shuki, “Shashmaqom”ni bugungi holga keltirish nechog'liq mushkul bo'lganini his qila olgan kishi O'zbekiston xalq shoiri Sobir Abdullanning quyidagi misralari shunchaki yozilmagani, Yunus Rajabiy qatori o'zbek maqomini tiklash yo'lida jonbozlik ko'rsatgan barcha musiqashunos olimlarga qarata aytilganini ham anglab oladi:

Kishi xizmat qilar elga, yashar u Hamisha yodlanib unvonu nomi. Ulug' ish qildingiz boylikni to'plab, Tirildi Siz bilan o'zbek maqomi.



davomida “O'zbek xalq musiqasi” antologiyasi va “Shashmaqom” kitoblariga jo bo'lgan original nota yozuvlarining eng mukammal ijrolarini



“Shashmaqom” — olti maqom ekani ma'lumligi holda, u o'z-o'zidan shu tarzda shakllanib qolmagani, uning yaratilishida XVIII asrgacha “Duvozdox maqom” — o'n ikki maqom asosiy o'rin tutganini ham hamma bilavermaydi.

ham yaratishga muvaffaq bo'ldi. Akademikning “Shashmaqom” ustidagi mehnatlarini o'rganar ekanimiz, nota yozuvlariga o'tkazilishdan avval ustoz tomonidan har bir kuyning qayta ishlab, sayqallanishi



Qadriyat

Shoberdi baxshi BOLTAYEV, O'zbekiston xalq baxshisi

So'z, soz, ovoz va yurtga muhabbat

Surxon tomonlarda azaldan baxshichilik san'ati bir maromda — ba'zan jonlanib, ba'zan sokin rivojlanib kelgan. Bu san'at baxshining qo'lidagi do'mbirasi va ovozi bilan og'izdan og'izga o'tgan. Otam Bolta Aliyev do'mbira chalishda mohir bo'lgani baxshichilik hayotim va qismatimga aylanishiga zo'r turki bergan. Do'mbirani chiroyli chertishni undan o'rgandim. Kuyini baxshichilik yo'lida “nag'ma” deyishadi. Otamdan 32 ta nag'ma meros qoldi.

Bugun 80 yosh dovonidan o'tib turgan mening asl dardkashim, suyanchim — do'mbira, ohim — shu nag'malar bo'ldi. Inson sifatida dardlarimni o'zgalarga aytishni yoqtirmayman, do'mbiraga aytaman, do'mbira esa elga aytdi. Xayolga tolganimda, hayot urinishlaridan ozor topganida, ijodga berilganida do'mbira chertaman. Kuylarimning har qaysisi ma'lum bir voqealarni, hodisani, tuyg'uni, kechinmani ifoda etadi. Bundan bir yayrayman, bir yayrayman, g'uborlarni unutam.

Yigirma yoshlardan o'tib, Termiz shahri tomon endim. Institutda o'qirkanman, Xushboq baxshi Mardonag'ulovdan doston va termalar aytish sirlarini o'rgandim. U paytda baxshiga dushmandek, eskilikning davomidek qarashlar bo'ldi.

Ilk bor aytgan termam ham “Oypari” bo'lgan. Keyinchalik uni O'zbekiston xalq artisti Mahmud Namozov zamonaviy uslublar uyg'unligida maromiga keltirib ijro etdi. Do'mbira menga 70 yilki hamroh. Azaldan do'mbira zamonlar osha yashab, ustozdan shogirdga, avlodlardan avlodga o'tib xizmat qilgan.

Qo'lmda bir do'mbira bor. Bu do'mbira otamning qo'lga tushganiga, xonadonimizga kirganiga to'qson yil bo'ldi. Yasalganiga esa bir asrdan oshgan bo'lsa, ajab emas.

Elda “Boysunning Munchog'idan bir baxshi chiqibdi. Do'mbirani sayratishga usta ekan”, degan gaplar tarqalib, davralarga pinhona-pinhona chaqira boshlashdi.

O'tgan asrning 60-70-yillarida Munchog' qishlog'idagi maktabda o'quvchilarga kimyo va biologiya fanlaridan saboq berardim. Keyinchalik alkimyog'ar yanglig' chin so'z va soz, ohang uyg'unligini topish ilinji bilan baxshichilik sohasiga butkul o'zinni bag'ishladim.

Bugun har doim qishloqqa kelganimda maktabga yo'l olaman. Shogirdlarim va ularning o'quvchilari bilan dildan suhbatlar quraman.

Men uchun Vatan o'z oilam, tug'ilib o'sgan Munchog' qishlog'imiz, unga tutash Qorovulpepa adirlilari va Boysuntog'dan boshlanadi, so'ng kengayib boradi, Surxondaryo, butun O'zbekiston qadar kenglikdagi zaminu osmon, qadrdon xalq, nabototu hayvonot dunyosigacha tabarruk va aziz...

Dunyoning 34 mamlakatida bo'ldim. Qaysi yurtda ijodiy safarda bo'lmayin, yurtning qay go'shasida yashab mehnat qilmayin, hamisha Munchog' qishlog'ida qolgan tabarruk ota uyim tomon talpinaman.

Meni ellarga tanitgan O'zbekistonni kuylash umrimning mag'zi va mazmuniga aylaniy qolgan. Mo'jazzina qishlog'imizda yuzlab mehmonlarni qabul qildim va imkonim boricha mehr bilan kuzatdim. Mamlakatda davlat rahbari tashabbusi